



G'JDUVON SHAHRI IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI

Abdujabborova Ozoda Jamshid qizi

Ilmiy rahbari: A.M. Mavlonov

Buxoro davlat pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari

ta'lim yo'nalishi, 3-kurs talabasi

Annotatsiya: maqolada G'ijduvon shahrining tashkil etilishi, ijtimoiy joylashuvi, unda tashkil etilgan kichik sanoat zonalarining faoliyati samaradorligini oshirish masalalari ko'rilgan va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini o'sishi bilan uzviy bog'liqligi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: erkin iqtisodiy zonalar, texnopark, kichik sanoat zonolari, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, imtiyozlar, geografik jihatlari.

Аннотация: в статье рассматриваются организация города Гиждуван, его социальное положение, вопросы повышения эффективности созданных в нем малых промышленных зон, а также научно обоснована их неразрывная связь с повышением конкурентоспособности национальной экономики.

Ключевые слова: свободные экономические зоны, технопарк, малые индустриальные зоны, малый бизнес, частное предпринимательство, льготы, географические аспекты.

G'ijduvonning nomi X asrdan boshlab arab va mahalliy manbalarda tilga olinadi. G'ijduvon X asrdan boshlab yirik aholi markazi, ya'ni shahar maqomida faoliyat yuritib kelgan bo'lib, Buxoro xonligida mavjud 32 ta rustav(tuman)ning orasida eng kattasi bo'lgan.

G'ijduvon shahri asrlar davomida bir necha marta talanib, vayronaga aylantirilgan bo'lsada, o'zining geografik joyidan siljimagan va yana o'sha o'zi qaror topgan balandlikda qo'rg'on shaklida qayta-qayta tiklanavergan. Bu shahar tub aholisi etnik tarixini ham qadimiyligidan darak beradi. G'ijduvon shahri Buxoro vohasining g'arbi-shimoliy tomonida, undan 40 km chamasi uzoqlikda joylashgan o'rta asr shahri. Hozir shu nomdagi tuman markazidir.

Yozma manbalarda yozilishicha, G'ijduvon Movorounnahrning nafaqat iqtisodiy-siyosiy markazi, balki fan va madaniyat tarixida ham o'z mavqeyiga ega bo'lgan. Masalan, Husayn Voiz Koshifiyning "Rashoxat at al-hayot" asarida keltirishicha O'rta Osiyodagi tasavvuf



ta'limotining mashhur namoyondalaridan biri Abduholiq G'ijduvoni haqida xabar beradi: "U asli g'ijduvonlik, qabri G'ijduvonda, Xojagon, So'fiylik silsilasi asoschilaridan biri bo'lgan. G'ijduvon nomi ham ana shu davrdan boshlab olamda yanada mashhur bo'lgan" deb ta'kidlaydi. Hofiz Tanish Buxoriy o'zining shoh kitobi "Abdullanoma" ("Sharafnomai shohiy") asarida yozilishicha G'ijduvonda tug'ilib Buxoroda yashab o'tgan Xo'ja Oloviddin G'ijduvoni (XIV asr oxiri XV asr boshi) ismli mashhur shayx o'zidan katta ma'naviy meros qoldirgan ekan.

G'ijduvon nomining kelib chiqishi bo'yicha ham manbalarda, turli xil fikrlarga duch kelishimiz mumkin. X-XI asrlar sayyoh olimlari G'ijduvon nomini bir necha ko'rinishlarda tilga olganlar. Jumladan, arab sayyohi va olimi Shamsiddin Al-Muqaddasiyning (946-1000) "Axsan at-Taqqosim fi Ma'rifat al-Akkolim" ("Iqlimlarni bilishning eng yaxshi taqsimlash yo'li") asarida bu joyni "Gujduvor" (yoki G'ijduvor) shaklida yozib, shahar ko'rinishidagi katta qishloq deb ta'rif berilgan. Abu bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiyning memuar asarlaridan bo'lmish "Buxoro tarixi" asarida Buxoro va unga qo'shilgan joylar haqida ta'rif berganda o'ndan ortiq toponimlarga ta'rif berar ekan aksariyat aholi yashaydigan joylarni katta qishloqlar deb tilga oladi va aynan G'ijduvon haqida ma'lumot bermaydi. Bizningcha, asarda keltirilgan Barkad, Vardona, Iskajkat, Tavois kabi nomlarda G'ijduvon hududlari nazarga olingan bo'lishi mumkin.

G'ijduvonning "Gujdavon" so'zidan olinganligini "dovonlari g'uj, dovonlari ko'p bo'lgan joy" ma'nosini anglatishi haqidagi ma'lumotlar saqlangan. Muhammadjon Baqoyevning "G'ijduvonnoma" kitobida G'ijduvon nomi bilan bog'liq rivoyat ham uchraydi. Bu rivoyat Mug'allon qishloqlik Qilichbobo Siddiqov tomonidan aytib berilgan: "Emishki, bir sharqlik donishmand Buxorolik donishmandlarni munozarada lol qoldirib nom qozonmoq niyatida bu yerga kelgan ekan. Yo'li G'ijduvon qo'rg'oniga tushibti. Bir xonadonda tunabdi. Uy sohibini boboi Porado'z der ekanlar. Mehmon uyga kirib hayron qolibdi. Ravoqi-javonlarda, xontaxta ustlarida ham xilma-xil kitoblar, sahifalashtirilgan qo'lyozmalar terib qo'yilgan ekan. Boshqa bir oqshom bu mehmon mahsido'z hunarmand xonadonida mehmon bo'libdi. Uchinchi kechani temirchi usto-chilangar uyida o'tqazibdi. Bu xonadonlarda ham u juda ko'p kitoblarni ravoqlarda, javonlarda terib qo'yilganini ko'ribdi. Xonadon egalari har ertalab turib, ularning



changlarini tozalar va peshonasiga qo'yib o'par ekan. Oxirgi kechada mehmon o'zining maqsadini oshkor qilibdi: "Men kun chiqish tomonidanman. Ko'p o'qigan olim, ko'p joyni ko'rgan sayyoh va elatlar o'tmishi va hozirgi hayotidan, kechinmalaridan xabardor tarixchiman. Shu bilan birga bahs-u munozaralarda nom qozongan donishmanddurman. Bu chekka joyda odamlar kitoblarni e'zozlab, gapda chechanu dono bo'lgach, Buxoroga borishga menga yo'l bo'lsin. Bu g'ij-g'ij kitob to'la javon egalari bilan muloqot qilishdan qo'rqrurman", deya orqasiga qaytib ketibdi. Shu-shu bu hudud "G'ijdevon" (G'ij-g'ij kitob to'la javon) deb atalgan ekan.

G'ijduvon O'zbekistonning Zarafshon daryosi vodiysidagi sug'oriladigan paxtachilik hududida joylashgan. Shaharda viloyat dehqonlari yetishtirgan paxtani eksportga tayyorlaydigan paxtani qayta ishlash korxonasi mavjud. 1991-yilda mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekiston iqtisodiyotida paxtaning ahamiyati muttasil pasayib bordi, shu bois G'ijduvon viloyati va viloyat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilib, qishloq xo'jaligi paxtachilikdan voz kechib, sabzavot-mevachilikka o'tmoqda. Iqtisodiyotning transport kabi ba'zi tarmoqlari ham o'sishda. M34 avtomobil yo'li G'ijduvonni respublikaning boshqa hududlari, jumladan, Buxoro, Samarqand va Toshkent bilan bog'laydi.

Tarixan shahar o'zining Sug'd va Fors mehnatkash savdogarlari bilan mashhur bo'lgan, ular boshqa yirik savdo markazlariga borib, mahalliy bozorga turli tovarlar olib kelishgan. Ular bu obro'-e'tiborni bugungi kungacha saqlab qolgan. Mahalliy ishbiarmonlar Xitoy, Rossiya, Boltiqbo'yi davlatlari, Turkiya, Eron kabi mamlakatlarga borib, tovarlarni ulgurji xarid qilib, G'ijduvonga olib kelishadi.

G'ijduvon hunarmandlari mahalliy iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi va ularning mehnati sayyohlar uchun katta qiziqish uyg'otadi. Shaharda kulolchilikning o'ziga xos uslubi bor, bu kulolchilikka o'ziga xos firuza-ko'k rangni qo'llash orqali aniqlanadi. Uels shahzodasi, shahzoda Charles va Hillary Clinton kabi taniqli shaxslar G'ijduvonga tashrif buyurib, mahalliy hunarmandlar ishini ko'rishgan.

Shaharda paxta tozalash, meva-sabzavot konserva, g'isht, pivo va yaxna ichimliklar zavodlari, „Buxoroteks“ to'qimachilik korxonasi, MTP, avtokorxonalar, qurilish tashkilotlari, gilam to'qish, poyabzal fabrikalari, milliy kulolchilik, qandolatpazlik, kulolchilik,



novvoyxonalar. dehqon bozori, madaniy savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari mavjud.

Mamlakatimizda mahalliy mineral-xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy korxonalar tashkil etish, hududlarning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, shu asnoda yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadini oshirish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb qilishning muhim omili sifatida erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini barpo etishga alohida e'tibor berilmoqda. Kichik sanoat zonalarining tashkil qilinishi zamonaviy raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish turlarini tashkil etish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholi daromadlarining o'sishini ta'minlashga, mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, Prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan ta'kidlab o'tilganidek: "Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investisiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin. Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida biznes sub'ektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferensiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 25 oktyabrdagi «Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3356-son qaroriga asosan 2017 yilning 1 dekabridan boshlab erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini boshqarish hamda ular faoliyatini tashkil etishning yangi tizimi joriy etilishi, jumladan, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha tashkil qilingan hududiy komissiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining ma'muriy kengashlari etib qayta tashkil qilinib, ularning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari belgilab berildi.

Buxoro viloyatidagi "G'ijduvon" maxsus iqtisodiy zonasida 38 ta 124,13 million dollarlik loyihalar amalga oshirilmoqda. Umumiy qiymati 93,27 million dollarlik 29 ta loyiha ishga tushirilishi natijasida 2 ming 94 ta yangi ish o'rni yaratildi. Mazkur ishga tushgan loyihalar



hisobidan 2020 yilda 361,7 milliard soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan. 20,1 million AQSH dollarlik mahsulotlar eksport qilindi. 2021 yilda esa 26,8 million AQSH dollarlik mahsulotlar eksportga yoʻnaltirilgan.

Ayni paytda 2021-2022 yillarda maxsus iqtisodiy zonaning 38,8 gektar hududida ishga tushirilishi rejalashtirilayotgan 94,9 million dollarlik yana 9 ta yirik loyiha boʻyicha texnik iqtisodiy asoslar ishlab chiqilmoqda. Ekspertizadan oʻtkazish, er maydonlarini auksionga chiqarish va qurilish ishlari davom etayotgan loyihalar asosida 2 ming 110 ta yangi ish oʻrni yaratiladi. “Gʻijduvon” maxsus iqtisodiy zonasida transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish orqali investorlarni jalb etishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

SHuningdek, «Gʻijduvon» maxsus iqtisodiy zonasi Gʻijduvon shahri hududi uchun loyiha qiymati 39 milliard soʻmdan ortiq boʻlgan oqova suv tizimlari va oqova suv tozalash inshootini qurish loyihasi boʻyicha ham qurilish ishlari boshlangan. Joriy yil yakuniga qadar 1 ta kanalizatsiya tozalash inshooti, uzunligi 986 metr boʻlgan bosimli kanalizatsiya uchastkasi, uzunligi 2 ming 814 metr boʻlgan tortishish kanalizatsiya tarmoqlari va boshqa qoʻshimcha qurilmalar qurilishi rejalashtirilgan.

Adabiyotlar:

1. Abirqulov Q . Iqtisodiy geografiya. — T.: TD1U, 2014 y.
2. Ro'ziyev A., Abirqulov Q.N. O 'zbekiston iqtisodiy geografiyasi Г., «Sharq» nashriyoti, 2019.
3. Страны и регионы мира: экономико-политический справочник. Под ред. А.С.Булатова. —М.: Проспект, 2019.